

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



TASDIQLAYMAN
Navoiy davlat pedagogika instituti
Kengashi raisi: _____
B.B.Sobirov
_____ 2024 yil

**JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA
FANLARARO (MAJBURIY FANLAR) YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASI SINOVNING
DASTURI**

(2023/2024 o'quv yili bitiruvchi kurs talabalari uchun)



Navoiy – 2024

Ushbu dastur Navoiy davlat pedagogika instituti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" hamda "Sport va harakatli o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish uchun tuzilgan bo'lib, institut Kengashining "29" "03" 2024 yil 9-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Jismoniy madaniyat" kafedralarida muhokama qilingan va "28" "03" 2024 yil 8-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedralarida muhokama qilingan va "28" "03" 2024 yil 8-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Asos: - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 iyunda 1963-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentyabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom.

- "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" hamda "Sport va harakatli o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" fanining o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 21 avgustdagi 303-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Pedagogika ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti", Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 18-avgustdagi 4-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

1. "Jismoniy madaniyat" kafedrasini mudiri
2. "Jismoniy madaniyat" kafedrasini
3. "Jismoniy madaniyat" kafedrasini
4. "Jismoniy madaniyat" kafedrasini

ros
Aslonova
Musayev
Turdiyev
dots. Sh.S.Hojiyev
dots.M.A.Aslonova
(PhD) O.Q.Musayev
dots U.K.Turdiyev

Taqrizchilar:

1. Navoiy DPI Jismoniy madaniyat kafedrasini
- 2.SamDU O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasini professori

Zaripova
(PhD) Zaripova F.A.

Boltayev
Z.B.Boltayev

Tuzuvchilar:

- 1."Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri
- 2."Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasini
- 3."Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasini
- 4."Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasini

Haydarov
Jo'rayev
Cho'liyev
Achilov
dots S.N.Haydarov
dots.A.Jo'rayev
v.b dots A.Q.Cho'liyev
o'qituvchi O.H.Achilov

Taqrizchilar:

- 1.Navoiy DPI "Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasini (PhD)dots,
- 2.SamDU O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasini professori

Shaxridinova
L.Shaxridinova

Boltayev
Z.B.Boltayev



Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturining maqsadi: kurash fani talabalarga kurashni o'qitish uslubi va nazariy bilimlarini o'rgatish, kurashtexnikasi va usullarini haqida nazariy bilim, amaliy harakat ko'nikma va malakalarini egallash, o'rganish, kurashbo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish uslubiyotini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida kurashvositalaridan samarali foydalanib o'qitish va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturining vazifalari: talabalar bilan o'quv mashg'ulotlari ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladi. Shu mashg'ulotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasida kurashturlarining rivojlanish tarixini o'rgatish, O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida kurashturlarini o'rni, kurashmashg'ulotlarida umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarni o'rgatish, kurashmashg'ulotlarida shikastlanishning oldini olish, milliy kurashning muayyan turi texnikasi va qoidalarini o'rgatish, kurashturlari texnikasi va usullarini o'rgatish, kurashturlari mashg'ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishini o'rganish, kurashturlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish, kurashturlari bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish, shuningdek musobaqa hujjatlarini yuritish va hakamlik qilish, bolalar sportida milliy kurashning o'rni, kurashmashg'ulotlarining ayrim xususiyatlari kabi vazifalarni amalga oshirish bilan birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

1.Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan mutaxassislik fanlar nomi:

1"Sport mahoratini oshirish" (kurash)

2."Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi"

Sport mahoratini oshirish (kurash) fani mazmuni.

Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari. Kurash fani talabalarga kurashni o'qitish uslubi va nazariy bilimlarini o'rgatish, kurash texnikasi va usullarini haqida nazariy bilim, amaliy harakat ko'nikma va malakalarini egallash, o'rganish, kurashbo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish uslubiyotini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida kurashvostalaridan samarali foydalanib o'qitish va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

O'zbekiston Respublikasida kurash turlarining rivojlanish tarixi. Qadimda kurashning paydo bo'lishi. Kurash shakllanishi va rivojlanishi. Sport kurash turining tarixiy manbaalari, tasniflash, tizimlashtirish va atamalar tushunchalarining ta'rifi, kurash turlarining tasnifi, kurash nazariyasi va amaliyotida qo'llanadigan

tasniflashtirish tahlili; sportga tasniflash, kurashchilarning vazn toifalariga, guruhiga, sport tayyorgarligiga qarab tasniflash. Kurash usullarining to'liq nomlanishi va qisqacha atamalarining paydo bo'lishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng milliy kurashning rivojlanishi va shakllanishi hamda birinchi jahon chempionati haqida ma'lumotlar berish. O'zbek milliy kurashining jahonda tutgan o'rni va erishgan yutuqlari. O'zbek milliy kurashi bo'yicha kurash assotsiatsiyalari, kurash federatsiyalari to'g'risida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Kurash turlari bo'yicha mashg'ulotlarda umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar o'rgatish yuzasidan nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Kurash mashg'ulotlarida shikastlanishning oldini olish yuzasidan nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Kurashning muayyan turi texnikasi va qoidalarini o'rgatish yuzasidan nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Kurashda tashlash, uloqtirish texnikasi va supurma turlari, ushlab variantlari, qarshi usullar, himoya, uchraydigan xatolar. Qadam bilan hamohang yon bilan supurib tashlash usullari haqida bilim va ko'nikmalarga ega qilish. Kurashchining holatlari, o'z-o'zini himoyalash, kurashchining harakatlari va aldamchi harakatlar. Orqaga yiqilish, yon tomonga yiqilish haqida nazariy bilimlarga ega qilish. Kurashda harakatlanish texnikasini boshqarish, kurashchini aldamchi usullar bilan muvozanatdan chiqarish texnikasi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish, ya'ni harakatlanish texnikasida uloqtirish, elkadan oshirib tashlash va gilamda harakatlanish usullarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berish. Kurashda aldamchi usullar bilan hujum qilish, hujumga qarshi usullar haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Kurash turlari va texnikasini o'rgatishda ko'pkurash texnikasi usullari haqida bilim ko'nikmalarga ega qilish. Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg'itib bajariladigan usullar to'g'risida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Kurash turlari mashg'ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishi to'g'risida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Kurash turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish. Musobaqa nizomi haqida ma'lumot berish. Musobaqa turi. Musobaqaning maqsadi va vazifalari. Qatnashuvchi tashkilot va jamoalar, qatnashuvchilar. Sport tasnifi, yoshi, jinsi va qaysi jamoadan ekanligi. Musobaqa o'tkazish joyi va vaqti. Musobaqaning ochilish marosimi. Musobaqa o'tkazish tartibi. Musobaqada ishtirok etish shart-sharoitlari. Musobaqani o'tkazishga mas'ul tashkilot. Hakamlar hay'ati. Olishuv vaqti haqida ma'lumotlarga ega qilish. Musobaqa turlari. Shaxsiy birinchilik, jamoa birinchigi, ochiq gilam birinchiligi, mutlaq birinchiligi haqida ma'lumotlarga ega qilish. Hakamlar hay'ati, gilamdagi hakam, bosh hakam, bosh hakam o'rinbosari, bosh kotib va kotiblar, o'rtadagi hakam, yon tomondagi hakam, vaqtni kuzatuvchi hakam, tablodagi hakam, e'lon qiluvchi hakam va hakamlarning vazifalari to'g'risida ma'lumotlarga ega qilish. Olishuv boshlanish vaqti va tugashi. Kurashchilar vaznlarini aniqlash tartibi. Musobaqada qatnashish uchun kurashchidan qilinadigan talablar. Kurashchining majburiyatlari. Kurashchining umumiy qoidalari. Kurash atamalari. Kurash bo'yicha musobaqa bayoni to'g'risida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

2.Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi fanining qisqacha mazmuni.

Sport va harakatli o'yinlarni ota-bobolarimiz o'ynab kelgan o'yinlarni tiklash, ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishga o'rgatish, uning estetik jihatlari, o'yinlar orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya darslarida sport o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazishga o'rgatish, sport o'yinlari, stol tennisi, futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi o'yinlarida hujum va himoya texnikasi hamda taktikasi bilan tanishtirish, o'yinlarda qo'llanadigan turli usullar, fintlar bilan amaliy tanishtirish, hakamlik qilish malakalarini shakllantirish, musobaqalar o'tkazish usullarini va nizomlarini tuzishga o'rgatish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitishning faol uslublaridan foydalangan holda nazariy bilim beriladi, amaliy mashg'ulotlarda esa maruza va seminar mashg'ulotlarida egallangan bilimlarni amalda bajarib, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Harakatli o'yinlarni tashkil qilish, tahlil qilish, harakatli o'yinlarni bolalarning yoshiga mos holda tanlashni amaliy tanishtirish, harakatli o'yinlarda hakamlik qilish o'yinning estetik xususiyatlari anglash, o'yinlar orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib toptirish malakalarini shakllantirish, sport bayramlari va turli sanalarga bag'ishlangan musobaqalar o'tkazish usullarini va senariylarini tuzishga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va oshirish yo'llarini o'rgatish, sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'tkazish bo'lajak mutaxassislariga talabalarda sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun atroflicha bilim berish, sport o'yinlarni tashkil qilish, tahlil qilish, badminton, stol tennisi, futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi o'yinlarida harakatlanish va to'pni boshqarish texnikasi, hujum va himoya texnikasi hamda taktikasi bilan tanishtirish, o'yinlarda qo'llanadigan turli usullar, fintlar bilan amaliy tanishtirish, hakamlik qilish malakalarini shakllantirish, musobaqalar o'tkazish usullari va nizomlarini tuzishga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va tarbiyalash yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Sport mahoratini oshirish (kurash) fan bo'yicha savollar to'plami.

1. Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasida kurash turlarining rivojlanish tarixi
3. O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida kurash turlari.
4. Kurash mashg'ulotlarida umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar.
5. Kurash turlarida mashg'ulotlarida shikastlanishning oldini olish.
6. Kurash turlarining muayyan turi texnikasi va qoidalarini o'rgatish.
7. Kurash turlari texnikasi va usullarini o'rgatish
8. Kurash turlari mashg'ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishi.
9. Kurash turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish

10. Milliy kurashning rivojlanishi tarixi
11. Belbog‘li kurashining rivojlanishi tarixi
12. Dzyudo kurashining rivojlanishi tarixi
13. Sambo kurashining rivojlanishi tarixi
14. Milliy kurashning qoidalari
15. Belbog‘li kurashning qoidalari
16. Dzyudo kurashning qoidalari
17. Sambo kurashining qoidalari
18. Milliy kurashning texnikasi va taktikasi
19. Belbog‘li kurashning texnikasi va taktikasi
20. Dzyudo kurashning texnikasi va taktikasi
21. Sambo kurashning texnikasi va taktikasi
22. Milliy kurash bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish
23. Belbog‘li kurash bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish
24. Dzyudo kurash bo‘yicha
25. Sambo kurash bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish
26. Sport kurashlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish
27. Kurashning muayyan turi texnikasi va qoidalarini o‘rgatish;
28. Kurash turlari texnikasi va usullarini o‘rgatish;
29. Kurash turlari mashg‘ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishini
30. Kurashda tashlash, uloqtirish texnikasi va supurma turlari, ushlab variantlari, qarshi usullar, himoya, uchraydigan xatolar.
31. Qadam bilan hamohang yon bilan supurib tashlash usullari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega qilish.
32. Kurashchining holatlari, o‘z-o‘zini himoyalash, kurashchining harakatlari va aldamchi harakatlar. Orqaga yiqilish, yon tomonga yiqilish haqida nazariy bilimlarga ega qilish.
33. Kurashda harakatlanish texnikasini boshqarish, kurashchini aldamchi usullar bilan muvozanatdan chiqarish texnikasi haqida nazariy ma`lumotlarga ega qilish,
34. harakatlanish texnikasida uloqtirish, elkadan oshirib tashlash va gilamda harakatlanish usullarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.
35. Kurashda aldamchi usullar bilan hujum qilish, hujumga qarshi usullar haqida nazariy ma`lumotlarga ega qilish.
36. Kurash turlari va texnikasini o‘rgatishda ko‘pkurash texnikasi usullari haqida bilim ko‘nikmalarga ega qilish.
37. Raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg‘itib bajariladigan usullar to‘g‘risida nazariy ma`lumotlarga ega qilish.
38. Kurash turlari mashg‘ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishi

39.5. Asosiy adabiyotlar

1. Azizov N.X. Belbog‘li turkiston kurashi. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: o‘qituvchi, 1998 yil.

2. Xodjayev P., Achilov T.S. Kurash va yakka kurash. O‘quv qo‘llanma Toshkent “Davr” 2013 yil.

3. Achilov T.S. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma Toshkent “ABU MATBUOT-KONSALT” 2014 yil.

40.Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari – O‘quv qo‘llanma Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.

2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma, Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.

3. Dzyudo kurashi. A.A.Absatarov. A.A.Istomin. Toshkent Iqtisod-Moliya 1993 yil.

41.Elektron ta`lim resurslari

1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz

3. www.ziyonet.uz

4. www.lex.uz

5. www.bilim.uz

6. www.gov.uz

“Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” fanidan savollar.

1. Voleybol o‘yining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi?

2.Voleybol o‘yining texnikasi?

3.Voleybol o‘yinida yakka tartibdagi taktik harakatlar ?

4.Voleybolda o‘yinida texnik harakatlar?

5.Voleybol o‘yinida hujum zarbalari?

6.Voleybol o‘yin texnikasining tasnifi?

7.Voleybol o‘yini taktikasi ?

8.Voleybol o‘yinida yakka tartibdagi taktik harakatlar?

9.Voleybolchilarning o‘yinidagi turish holatlari?

10. Voleybol o‘yinida himoya texnikasi?

11.Voleybol o‘yinida to‘siq qo‘yish texnikalari?

12.Voleybol o‘yinida hujum taktikasi ?

13.Voleybol o‘yinida himoya taktikasi?

14.Voleybol musobaqa qoidalari va hakamlilik qilish usuliyati?

15.Voleybol o‘yinida yakka tartibdagi taktik harakatlar ?

- 16.Voleybol o'yinining paydo bo'lishi va rivojlanishi?
- 17.Voleybolchilarning o'yinidagi turish holatlari?
- 18.Voleybol o'yinida himoya texnikasi?
- 19.Futbol o'yini texnikasining tasnifi?
- 20.Futbolda to'pga zarba berish trayektoriyasi xususiyatlari?
- 21.Futbol oyinida darvozabon texnikasi?
22. Futbol o'yinida harakatlanish texnikasi?
- 23.Futbol o'ynining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi?
- 24.Futbol o'yinida maydon o'yinchisining texnikasi?
- 25.Futbol oyinida darvozabonning o'yin texnikasi oshirish metodlari?
- 26.Futbol oyinida darvozabonning o'yin taktikasi?
- 27.Futbol o'yinida to'p olib yurish texnikasi?
- 28.O'zbekistonda futbollning rivojlanishi?
- 29.Futbol o'yinida aldash harakatlari (fintlar) ?
- 30.Futbol oyinida o'yinchilarning vazifalari?
- 31.Futbol o'yinida hujum taktikasi?
32. Zamonaviy futbol qoidalari?
- 33.Yosh futbolchilarni tanlab olish?
34. O'zbekistonga futbolning kirib kelishi va rivojlanishi etablari?
35. Futbol o'yinida darvozabonning texnik-taktik tayyorgarligi?
36. Futbol o'yinida aldash harakatlari (fintlar)ni rivojlantish mashg'ulotlari ?
- 37.Futbol oyinida darvozabonning o'yin texnikasini maxoratini oshirish?
38. Futbol oyinida darvozabonning o'yin taktikasi maxoratini oshirish usullari?
39. Futbol texnikasining tasnifi?
40. Futbolda to'pga zarba berish trayektoriyasi xususiyatlari?
41. Futbol o'yinida maydon o'yinchisining texnikasi?
- 42.Futbol o'yinida to'pga zarba berish usullari?
- 43.Futbol o'yini hozirgi taktik tizimlari?
- 44.Futbol o'yinida to'p bilan bajariladigan usullar texnikasi?
- 45.Futbol o'yinida to'p olib yurish texnikasi?
- 46.Basketbolning paydo bo'lishi va rivojlanishi?

47. Basketbol O`zbekistonda qachon va qayerda vujudga kelgan?
48. Basketbol o`yinida to`pni yerga urib yurish texnikasai?
49. Basketbol texnikasi, uning tasnifi va mazmuni?
50. Basketbol o`yin texnikasi?
51. Basketbol maydonida harakat qilish texnikasi?
52. Basketbol bo`yicha musobaqa nizomini tuzing ?
53. Basketbol oyinida himoya taktikasi?
54. Basketbol oyinida hakamlar va ularning faoliyati?
55. Zamonaviy Basketbol qoidalari?
56. Basketbol o`yin qoidalari haqida tushuncha?
57. O`zbekistonga Basketbolning kirib kelishi va rivojlanishi etablari?
58. Basketbol maydoni o`lchamlari haqida tushuncha?
59. Basketbol o`yinida to`p bilan bajariladigan usullar texnikasi?
60. Basketbol o`yinida to`pni olib yurish texnikasi?
61. Basketbolning rivojlanish bosqichlari?
62. Basketbol jarima maydonida harakat qilish texnikasi?
63. Basketbol o`yinida to`p bilan bajariladigan usullar texnikasi?
64. Basketbol o`yinida to`pni uzatishda bajariladigan usullar texnikasi?
65. Basketbol o`yinida to`pni qabul qilish va uzatishlar?
66. Basketbol o`yinning taktikasi?
67. Basketbol texnikasi, uning tasnifi va mazmuni?
68. Gandbol sport turining texnikasi ?
69. Gandbolning paydo bo`lishi va rivojlanishi?
70. Gandbol O`zbekistonda qachon va qayerda vujudga kelgan?
71. Gandbol o`yin taktikasi?
72. Gandbol o`yinida hujum taktikalari ?
73. Gandbol o`yinida maydon o`yinchisining texnikasi?
74. Gandbol o`yinida texnik va taktik tayyorgarlik?
75. Gandbol bo`yicha musobaqa nizomini tuzing ?
76. Gandbol o`yinida yakka tartibdagi taktik harakatlar?

77. Gandbolchilarning hujumdagi texnik –taktik harakatlarining samaradorligini oshirish ?
78. Malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga texnik tayyorgaligi?
79. Gandbol o'yinida jismoniy tayyorgarlik turlari?
80. Gandbolda musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish ?
81. Yosh gandbolchilarni tanlab olish?
82. Gandbol oyinida hakamlarning vazifalari?
83. Gandbol o'yinida darvozabon oyin texnikasi va taktikasi?
4. Gandbol maydoni o'lchamlari haqida tushuncha?
85. Gandbol o'yinida darvozabon oyin texnikasi va taktikasi takomillashtirish mashqlari?
86. Gandbol o'yinida hujum taktikalarini takomillashtirish ?
87. Gandbol o'yinida to'p bilan bajariladigan usullar texnikasi?
88. Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar haqida ma'lumot bering?
89. Sport bayramlarini otkazishda harakatli o'yinlardan foydalanish?
0. Egiluvchanlikni sifatlarini rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar?
91. Kichik yoshdagi bolalarga o'tiladigan harakatli o'yinlar?
92. Harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish?
93. Harakatli o'yinlarni rejalashtirish va nazorat qilish?
94. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'tiladigan harakatli o'yinlar?
95. Harakatli o'yinlarni tanlashda yosga xos xususiyatlar?
96. Harakatli o'yinlarni tanlashda jinsi va yoshini hisobga olish xususiyatlari?
97. Maktab yoshidagi o'quvchilaga tavsiya etiladigan harakatli o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari?
98. Harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni oshirish uslublari?
99. Tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyati?
100. Harakatli o'yinlarni tashkil etishda gigieynik talablar?
101. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida xalq o'yinlarining rivojlanishi.

- 102.Sinfdan tashqari o'tkaziladigan jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi (quvnoq startlar, estafetalar, sport bayramlari).
- 103.O'quvchilarni sport turlariga tanlash usullari, metodlari va ular bilan mashg'ulot o'tkazish metodikasi.
- 104.Sport bayramlarini o'tkazishda milliy va harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi.
- 105.O'quvchilarni sport turlariga yo'naltirishda harakatli o'yinlarni ahamiyati.
- 106.O'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o'yinlarni tanlash va o'tkazish metodikasi.
- 107.O'quv muassasalarida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarida harakatli o'yinlar vositasi sifatida.
- 108.Harakatli o'yinlar tarixi va qisqacha tushuncha, turkumlari, rivojlanish bosqichlari va pedagogik ahamiyati.
- 109.Harakatli o'yinlarni bolani yoshiga mos holda tanlash, tahlil qilish va o'tkazish metodikasi.
- 110.Harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.
- 111.Harakatli o'yinlarni darsni asosiy qismida mos holda tanlash va tahlil qilish.

5.Asosiy adabiyotlar

- 1.Usmonxo'jaev T.S. "Harakatli o'yinlar" O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi 1992 y.
- 2.Maxkamdjanov K.M., Nurmatov F.A, Inozemseva L.A, Rustamov L "Sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi" Darslik T.: 2008 y.
- 3.Xo'jaev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. (Harakatli o'yinlari) O'quv qo'llanma TDPU T.: 2008 y.
- 4.Azizova R.I. "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma T.: 2010
- 5.Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o'yinlari" O'quv qo'llanma T.: 2012 y.
- 6.Arjan Egges, Arno Kamphuis, Mark Overmars "Motion in Games" First International Workshop, Utrecht, MIG 2008. 236 s.
- 7.Jukov M.N. - M.: Podvijnie igri: Ucheb. dlya stud. ped. vuzov. Izdatelskiy sentr «Akademiya» 2000. - 160 s.
- 8.Nurimov R.I. "Futbol" darslik T, O'zDJTI 2005 y.
- 9.Ayropetyans L.R. "Voleybol" Ucheb. T, UzGosIFK 2006 g.
- 10.Rasulov O.T. "Basketbol" Darslik. Toshkent 1998 y.
- 11.Pavlov Sh., Abduraxmanov F., Akromov J. "Gandbol" darslik. T, O'zDJTI 2005 y.

12.Nigmanov B.B, Xo'jaev F, Raximqulov K.D "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Ilm-Ziyo nashriyoti Toshkent 2011 y.

6.Qo'shimcha adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo'ramiz. Toshkent -"O'zbekiston" -2016.488 b.

2.Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent - "O'zbekiston" -2016.488 b.

3.Sh.Mirziyoyev Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent -"O'zbekiston" - 2017.104 b.

4.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

5.Xoldorov T., Tulenova X.B. Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, turizm, xalq milliy o'yinlarining nazariy va amaliy asoslari. TDTU bosmaxonasi, 2007 y.

6.Tulenova X.B. Malinina N.N., Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi, o'quv qo'llanma TDPU, 2005 y.

7.Internet saytlari

- www.tdpu.uz
- www.zivonet.uz
- www.edu.uz
- www.lex.uz
- www.bilim.uz
- www.gov.uz

BAHOLASH MEZONLARI

. Sport mahoratini oshirish (kurash)”hamda “Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi” fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining nazorat turlari, baholash tartibi va mezonlari

5 baholik	100 ballik		Baholash mezonlari
5	90-100	(a'lo)	"Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlau oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni

			amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
4	70-89,9	(yaxshi)	"Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
3	60-69,9	(yetarli)	"Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda
2	0-59,9	(qoniqarsiz)	"Talaba fanning mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas" deb topilganda

Izoh: Talabalarning bilim darajasi baholash mezonini jadvali Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi shaklidan va fanning xususiyatidan kelib chiqib to'ldiriladi.